



МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARDA INNOVATSION FIKRLASH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI

Xamidjonova M.

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti
"Maktabgacha ta'lim" kafedrası o'qituvchisi*

Tayanch so'zlar: maktabgacha ta'lim, innovatsiya, kreativlik, innovatsion fikrlash, mustqil fikrlash, intellektual rivojlanish, innovatsion ta'lim.

Ключевые слова: дошкольное образование, инновации, творчество, инновационное мышление, самостоятельное мышление, интеллектуальное развитие, инновационное образование.

Key words: preschool education, innovation, creativity, innovative thinking, independent thinking, intellectual development, innovative education.

Respublikamizda so'nggi yillarda maktabgacha ta'lim sohasini rivojlantirishga qaratilgan qator normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqildi. Ularda sohada yechimini kutayotgan bir qator vazifalar o'z ifodasini topgan. Xususan, "2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida "ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish sharoitlarini yaratish, maktabgacha ta'lim sifatini oshirish, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni maktabga sifatli tayyorlashni tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga jahon amaliyotida keng qo'llaniladigan zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini joriy etish" [1] kabi bir qator vazifalar o'z aksini topgan.

Shu kabi vazifalarni amalga oshirish maqsadida maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama o'sishi va barkamol shaxs sifatida kamol topishiga va ularning innovatsion fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, Janubiy Koreya, Fransiya, Yaponiya, Germaniya, Finlandiya kabi taraqqiy etgan davlatlar tajribasida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning jismoniy va estetik rivojlanishi bilan bir qatorda, tafakkuri, dunyoqarashi, intellektual qobiliyati va innovatsion fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga nisbatan alohida e'tibor qaratilmoqda. Maktabgacha yoshdagi bolalarni innovatsion fikrlashga

o'rgatish, ularni intellektual qobilyati, qiziqishi, ehtiyojlari va yosh xususiyatlariga mos har tomonlama rivojlantirish imkoniyatlari va qulay pedagogik shart-sharoitlar yaratishga yo'naltirilgan muammolar yuzasidan bir qator izlanishlar olib borilmoqda.

Ilmiy tadqiqot metodologiyasi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda innovatsion fikrlash ko'nikmasini shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha [2] M.V.Klarin bir qator fikrlarni keltirib o'tgan. U o'z qarashlarida maktabgacha yoshdagi bolalarning fikrlash ko'nikmasini shakllantirishning ijtimoiy - madaniy loyihalarini ishlab chiqish uzluksiz ta'limning sifat va samaradorligi bilan bog'liq ekanligini ilgari suradi.

J.Botkin boshchiligidagi olimlar guruhi "Rim klubi" ma'ruzasida innovatsion ta'limni an'anaviy, ya'ni "normativ" ta'limga muqobil sifatida bilimlarni egallashni asosiy turi sifatida tavsiflaydi. Normativli ta'lim "takrorlanuvchi vaziyatlarda faoliyat xulq-atvor qoidalarini o'zlashtirishga yo'naltirilgan" bo'lsa, innovatsion ta'lim yangi vaziyatlarda birgalikda, hamkorlikda harakatlanish qobiliyatini rivojlantirishni nazarda tutadi.

P.Torrens fikricha, kreativlik muammoga yoki ilmiy farazlarni ilgari surish; farazni tekshirish va o'zgartirish; qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash; muammo yechimini topishda bilim va amaliy harakatlarning o'zaro qarama-qarshiligiga nisbatan ta'sirchanlikni ifodalaydi.

Natijalar. Olimlarning qarashida innovatsiya rivojlangan texnologik jarayonning takomillashgan mahsuloti ko'rinishida namoyon bo'ladigan ijodiy mehnatning natijasi va maxsuli ekanligi o'z ifodasini topgan. Demak, innovatsiya amaliyot va nazariyaning muhim qismi bo'lib, ijtimoiy - madaniy ob'ekt sifatlarini yaxshilashga yo'naltirilgan ijtimoiy sub'ektlarning harakat tizimi, ayni vaqtda u boshqariluvchi va nazorat qilinuvchi o'zgarishlar mexanizmi bo'lib hisoblanadi [3].

"Innovatsiya" tushunchasi mazmunan "yangi", "yangilik" tushunchalarining aynan o'zi emas. Istalgan yangilik, qachonki, amaliy faoliyatda o'zining keng qamrovli samarasini bersa va keng ko'lamli ehtiyoj ob'ektiga aylansagina, tom ma'nodagi innovatsiya deb atash mumkin bo'ladi", degan fikrlar ilgari suriladi. [4]

Shuningdek, "innovatsion fikrlash" tushunchasi, avval yechimi bo'lmagan masalalarning yangi, original yechimlarini o'ylab topishga, izlanishga, imkon topishga amaliy yordam beruvchi ijodkorlik faoliyati natijasida shakllanadi.

Kreativlik - yangi g'oyalarni yaratish, yangiliklarni muvaffaqiyatli amalga oshirishda ijodiy yondashish degan ma'nolarni o'z ichiga oladi. Kreativlik - bu tamoyilning kashf qilinishi, yangilik esa tamoyilning foydali tovarlar va xizmatlarga aylanishi. Innovatsiya jarayonida g'oyalar tashkilotga qo'shimcha daromad keltiradigan real tovarlar va xizmatlar bilan ifodalanadi. Innovatsiyalar - yangi narsalar yaratish imkoniyatlarini ongli, aniq yo'naltirilgan izlanish natijasi sanaladi. Shunday qilib, «innovatsion fikrlash» tushunchasi kreativlikni o'z ichiga oladi, buning natijasida inson ilgari hech qachon hal qilinmagan yangi vazifani



muvaffaqiyatli hal etadi va bu vazifa inson ilgari ishlatmagan g'ayritabiiy, o'ziga xos tarzda hal etiladi. Innovatsion fikrlash nafaqat yangi ijodiy mahsulotni yaratishni emas, balki uni tanitish va targ'ib qilishni ham o'z ichiga oladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda innovatsion fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish uchun avvalo ularda yangiliklarni o'zlashtirishga to'g'ri yo'naltirish, kreativ fikrlashga odatlantirish, innovatsion faolligini oshirish, qiziqishi va iqtidorini ro'yobga chiqarish, ularni ma'naviy qo'llab quvvatlash orqali maktab hayotiga sifatli tayyorlashga qaratilgan vazifalarni to'laligicha amaliyotga tadbiiq qilishni ta'minlash lozim. Buning uchun tarbiyachi - pedagoglarni yangiliklarni o'zlashtirishga nazariy tayyorligini ta'minlash, ilg'or tajribalarni o'rganish va ommalashtirish, yangiliklarni o'zlashtirishga motivatsion tayyorgarligi, ko'p qirrali ilmiy uslubiy ishlar tuzilishini takomillashtirish, yangi amaliy g'oyalar yoki tadqiqotlarning paradigmasi va ishlanmalari zamonaviy ta'lim texnologiyalarining ma'lumotlar bazasini shakllantirish lozim.

Muhokamar: Innovatsiyaga oid pedagogik nazariyada turli mualliflarning ta'riflari asosida (innovatsiya, yangilik, yangi tartib-qoidalar) qarashlar ilgari surilgan. K.Yu.Belaya, S.F.Bagautdinova, V.S.Lazarev, A.V.Lorensov, M.M.Potashnik, O.G.Xomeriki va boshqalar, ushbu tushunchalarni guruhlashtirib, "yangi - yangilik", "innovatsiya - yangilik kiritish" so'zlarini sinonim hisoblashgan. Yangilik bu - aynan yangicha yondashish, vosita, yangi usul, uslub, texnologiya, dastur va h.k. Innovatsiyalar - yangiliklar bu - ushbu vositalarni o'zlashtirish jaryoni sanaladi. Yangiliklar yuqorida qayd etilgan mualliflar tomonidan maqsadga yo'naltirilgan o'zgarish, muhitga yangi mustahkam tarkibiy qismlarni (yangiliklarni) kiritib, tizimni bir holatdan ikkinchisiga o'tishini yuzaga keltiradi. "Innovatsion jarayon"ga ta'rif berganda, K.Yu.Belaya, V.S.Lazarev, M.M.Potashniklar "faoliyat" turkumini (kategoriya)sidan foydalanishadi. Innovatsion jarayon bu - yangiliklarni yaratish, o'zlashtirish, foydalanish va targ'ibot qilishdir [57] [127] [154].

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar ta'lim-tarbiya jarayonini nazariy-metodik jihatdan boyitish va ularni intellektual rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlar respublikamiz olimlaridan D.A.Abdurahimova, M.K.Abduhakimova Z.Azizova, M.Asqarova, N.X.Begmatova, U.Bo'taeva, F.N.Vaxabova, D.T.Mahmudova, kabi pedagog, psixolog va faylasuflar tomonidan tadqiq qilingan.

Jan Piaje , Selesten Frene , A.Inizan, J.Kalmi , M.Montessori , O.Dekroli, P.Kergomar, S.Bendjamin singari olimlar bolalarning erkinligini ta'minlash zarurligini alohida ta'kidlab o'tadilar. Ularning fikricha ruhiyati erkin bo'lmagan bola mustaqil fikrlay olmaydi. Buni dunyo miqyosida pedagog-mutaxassislar bundan ikki asr oldin o'z tadqiqotlarida alohida ta'kidlab ko'rsatib o'tishgan. Ularning asarlarida qayd etilishicha, maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi shart-sharoit imkon qadar oiladagi sharoitga yaqinlashtirilishi, o'qitish metodlari esa maksimal darajada muomala-muloqotning tabiiy asoslariga tayanishi lozim.



Xulosa: Bizning fikrimizcha, maktabgacha yoshdagi bolalarning innovatsion fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish bolalarning dunyoqarashi, tasavuri, tafakkuri, qiziqishi, mayllari, mustaqil fikrlashi, intellektual qobiliyati orqali amalga oshirish jarayonlarini inobatga olish ko'zlangan maqsadga erishishda o'ziga xos omil bo'lib xizmat qiladi. Har bir tarbiyachi-pedagogning o'zini o'zi rivojlantirishi va o'zini o'zi namoyon eta olishi bevosita uning kreativlik qobiliyatiga egaligi bilan bog'liq. Chunki, maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodkorlik faoliyatini rivojlantirishda interfaol metodlardan foydalanish samarali usullardan biri hisoblanadi deb ta'kidlash bejiz emas. Tarbiyachi mashg'ulotlar jarayonida muammoli masala va vaziyatlarni hal qilar ekan, bolalarning masala yechimini topishga ijodiy yondashishi unda hissiy-irodaviy sifatning rivojlanishiga, topqirlik, zukkoligini tarkib toptiradigan usul va vositalardan keng foydalanishi ularning innovatsion fikrlash ko'nikmasini shakllantirish va rivojlantirishga yordam beradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning muammoli masalalarni yechishga o'rgatish, ularni nafaqat innovatsion fikrlashga balki mavjud bilimlari va hayotiy tajribalariga zid bo'lgan muammolarni anglab yetishga va ularni bartaraf etishga o'rgatib boradi.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida farmon. 30.09. 2017 y., PF-5198. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 06/17/5198/0043-son.
2. Qodirova F.R., Toshpo'latova Sh.Q., M.N..A'zamova .Maktabgacha pedagogika. O'quv qo'llanma. T.:Ma'naviyat, 2013- 157 b.
3. Горбылева. Е.В. Воспитательные ценности в педагогическом наследии. Дисс. кан.пед.наук. Смоленск.: 2002.-199 с.
4. Kozlova S.A.,KulikovaT.A. Doshkolnaya pedagogika: Ucheb. posobie dlya stud. sred. ped. ucheb. zavedeniy.-3-ye izd.,isprav.i dop. - M.:Izdatelskiysentr «Akademiya»,2001. - 416 s
5. Qodirova F.R., Jo'raeva N.T. Maktabgacha ta'limda zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar. O'UM. TDPU huzuridagi XTXQTMOXM.T.:2018

РЕЗЮМЕ

Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda innovatsion fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishning mohiyati va uni amaliyotga tatbiq qilishning samaradorligi haqida fikr va mulohazalar kiritilgan bo'lib, maktabgacha yoshdagi bolalarda innovatsion fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish tizimini takomillashtirishning mazmuni sifatida, didaktik o'yinlardan foydalanilishi va maktabgacha yoshdagi bolalarda innovatsion fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga oid taklif va tavsiyalar keltirilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье собраны мысли и комментарии о сущности формирования навыков инновационного мышления у детей дошкольного возраста и эффективности его реализации, даны предложения и рекомендации по формированию навыков инновационного мышления.

SUMMARY

This article collects thoughts and comments about the essence of developing innovative thinking skills in preschool children and the effectiveness of its implementation, and provides suggestions and recommendations for developing innovative thinking skills.